

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MASALALAR YECHISH YORDAMIDA RIVOJLANTIRILADIGAN KOMPETENSIYALAR

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti, p.f.d(DSc)

Karimova Kamola Komil qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim fakulteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi II kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada masala turlarga ajratilib o'rganiladi. Sodda masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarda qanday kompetensiyalar shakllanishi ko'rsatib beriladi.

Abstract

In this article, the issue is divided into types. In the process of solving simple problems, it will be shown what competencies are formed in students.

Аннотация

В данной статье вопрос разбит на виды. В процессе решения простых задач будет показано, какие компетенции формируются у учащихся.

Kalit so'zlar: Milliy dastur, kompetensiya, amaliy standartlar, axborot bilan ishlash, muloqot qilish kompetensiyasi, mulohaza yuritish, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Keywords: National program, competence, practical standards, working with information, communication competence, reasoning, self-development competence.

Ключевые слова: Национальная программа, компетентность, практические стандарты, работа с информацией, коммуникативная компетентность, рассуждения, компетентность саморазвития.

Keyingi paytlarda ta'limning, shu hohada o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi ta'lim oluvchilarning faqatgina bilim olishi emas, olingan bilimni hayotda qo'llay olishi, turli kompetensiyalarni shakllantirib borishi, xalqaro standartlarga javob bera oladigan o'quvchilar guruhini yuzaga keltirish. Buning isboti sifatida 2022-yilda 25-martdagi Milliy dastur, unga asoslangan holda yaratilgan darsliklar, misol va masalalardagi o'zgarishlarni keltirishimiz mumkin. Darhaqiqat, bugungi kunda nazariya emas amaliyotga ko'proq murojaat qilish,

o'quvchilarda muammoli vaziyatni, mantiqiy topshiriqlarni tahlil qila olish, kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etilmoqda. Milliy dasturga muvofiq umumiy o'rta ta'lim tizimida fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarni ham rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ularni o'rganish natijasida o'quvchilar olgan bilimlarini hayotda tadbiiq qila oladilar. Matematika fani bo'yicha o'quvchilarda rivojlantiriladigan tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi.
3. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi
4. Ijtimoiy emotsional va fuqarolik kompetensiyasi.

Shu bilan birgalikda o'quvchilarning olingan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish uchun matematik amaliyot standart(kompetensiya)lari ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur standartlar ham umuman olganda amaliy tadbiiq standartlardan iborat bo'lib, ular o'quvchilarning quyidagi aqliy faoliyat sohalarini qamrab oladi:

1. Mulohaza yuritish(M1)
2. Modellashtirish(M2)
3. Muammoni yechish(M3)
4. Muloqot qilish(M4)
5. Ma'lumotlar bilan ishlash(M5)

Yuqoridagi kompetensiyalar shakllanishida, olingan bilimlar yordamida rivojlantirilib borishida masalaning o'rni beqiyos. Masala yechishda faqatgina uning yechimini topish emas, muammoni izlash, uni tahlil qilish ham talab etiladi.

Matematik masalalar sodda va tarkibli masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan mumkin bo'lgan masalalar sodda masalalar deyiladi. Bir necha sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amal yordamida yechiladigan masalalar tarkibli masalalar deyiladi.



(Bir nechta bir xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisini topishga doir masala)

4-masala. Velosipedlarda jami nechta g‘ildirak bor,



- O‘quvchilar, masalada gap nima haqida ketyapti?
- Velosipedlar haqida
- Bizdan nimani topishimiz so‘rlyapti?
- Jami g‘ildiraklar sonini
- Jami velosipedlar soni nechta ekan?
- 7 ta
- Bir dona velosipedda nechta g‘ildirak bor ekan?
- 3 ta
- 1 dona velosipedda 3 ta g‘ildirak bo‘lsa, 7 ta velosipedda nechta g‘ildirak bo‘lar ekan.

Topa olamizmi?

- Ha
- Qanday qilib?
- G‘ildiraklar sonini 7 marta qo‘shish orqali($3+3+3+3+3+3+3+3=$)
- G‘ildiraklar soni nechaga teng ekan?
- 21ga


Bunday masalalar o‘quvchilar uchun ko‘paytirish amaliga asos bo‘lub xizmat qiladi. Ular bir xil qo‘shiluvchilarni qo‘shish bilan chuqur tanishganidan so‘ng ko‘paytirish amalini yaxshi anglab oladilar. Masalada yechim nima aynan shunday shakldan foydalangan holda topilganini tushunib yetadilar. Bu kabi masalarni yechish jarayonida o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi yaxshilanib boraveradi. Shu bilan birgalikda mulohaza yuritish (M1) kompetensiyasi ham shakllanib, takomillashib boraveradi.

(Yig‘indini topishga doir masala)


1-masala.

Nargizada 9 ta munchoq

Oyshada 4 ta munchoq



Masala o‘qiladi va o‘quvchilar bilan masalada nima haqida ekanligi, nima so‘ralgani va so‘ralgan narsani qanday topish mumkinligi qisqacha muhokama qilinadi. Masala sharti va uning yechimi barchaga birdek tushunarli bo‘lishi uchun slayd va power poin imkoniyatlaridan foydalanish ayni muddao.




Ushbu rasm ekranda namoyish qilinadi va jami munchoqlar sonini toppish uchun ularni hammasini qo‘shish kerakligi yana bir bor tushuntirib beriladi. Ular yaxshi tushunishlari uchun unchoqlar sanash orqali birma-bir munchoqlarni qutichaga joylashtiradilar.

O‘quvchilar masala yordamida muloqot qilish(M4) va ma’lumotlar bilan ishlash(M) kompetensiyalarini yaxshigina o‘zlashtirib boradilar. Bundan tashqari, bu masala ham o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi yaxshilanib boradi. O‘quvchilar shu paytgacha o‘nlikdan o‘tmasdan qo‘shish orqali masalalar yechini topayotgan bo‘lsa, endi ular o‘nlikdan o‘tib qo‘shish ko‘nikmasini masalalarda ham qo‘llay oladilar.

(Noma’lum kamayuvchini topishga doir masala)

2-masala. Nodirbek 15000 so‘mga kitob sotib olganidan keyin unda 27000 so‘m pul qoldi. Nodirbekning necha so‘m puli bor edi?

- O‘quvchilar, masalada biz nimani topishimiz kerak?
- Nodirbekning kitob olmasdan avval qancha puli borligini
- Bizga nimalar ma’lum
- Qancha kitob sotib olgani va unda qancha qolgani
- Xo‘sh, Nodirbek necha so‘mga kitob sotib olibdi?
- 15000 so‘mga
- So‘ng unda qancha pul qolibdi?
- 27000 so‘m
- Nodirbekning necha so‘m puli bo‘lganini topa olamizmi?
- Ha
- Qanday topamiz?
- Qolgan puliga kitob sotib olgan pulini qo‘shamiz, ya’ni ayirmaga ayriluvchini qo‘shamiz($27000+15000=42000$)
- Barakalla, Nodirbekda avval necha so‘m pl bo‘lgan ekan?
- 27000 so‘m



Masala o'quvchilarda turli ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Birgina masala orqali ham ayirish va uning hadlariga doir ham pul bilan muomala qilishga oid bilimlar sinaladi. Masala yordamida o'z-o'zini rivojlantirish va mulohaza yuritish(M1) kompetensiyalari rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukhammedovich K. F. Development Students' Thrift Skills in Solving of Tasks. – 2021.
2. QOSIMOV F. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI SODDA MASALALAR BILAN TANISHTIRISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
3. Fayzullayevich F. K. Modern Methods and Approches of Assessing Knowledge and Skills in Information Technology Classes //JournalNX. – Т. 6. – №. 06. – С. 107-111.
4. Muxammedovich Q. F., Muxammedovna Q. M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
5. QOSIMOVA M. TO DEVELOP STUDENTS' SKILLS OF NATURE CONSERVATION AND RESPECT FOR HUMAN LABOR BY TEACHING THEM TO SOLVE ENVIRONMENTAL PROBLEMS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
6. Kasimov F. F. O. G. L. MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA XULOSA CHIQRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1038-1047.
7. Muhammedovich K. F. et al. SEARCH FOR DIFFERENT SOLUTIONS TO THE PROBLEM //EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 72-78.
8. Qosimova M., Qosimov F. KO 'PAYTIRISH VA BO 'LISHGA DOIR MASHQLAR TIZIMINI TUZISH BO 'YICHA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARI UCHUN USULIY TAVSIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.

9. Qosimova M., Qosimov F. IKKI SONNING YIG 'INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO 'RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 18. – №. 18.
10. Qosimova M., Qosimov F. ARIFMETIK MASALALARNI YECHISHDA TAVSIYA ETILADIGAN ILMIY-USULIY MULOHAZALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
11. Saidova M. J. MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 43-46.
12. Jonpo'latovna, Saidova Mohinur. "2-SHO 'BA: BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA XORIJIY TAJRIBALARNI TATBIQ ETISH-YANGI O 'ZBEKISTON STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH DRAYVERI SIFATIDA MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHISINING METODIK TA." PEDAGOGS jurnali 1.1 (2022): 176-179.
13. Jonpo'latovna S. M., Sharofat U. BOSHLANG 'ICH SINFI MATEMATIKA DARSLARIDA ALGEBRAIK MATERIALLARNI O 'RGATISHNING MUHIM VAZIFALARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 71-73.
14. Saidova M. Bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 101-104.
15. Saidova M., Fayzulloeva S. Boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining matematik savodxonligini o'qitishda raqamlarni o'rgatishning integratsion va innovatsion yondashuvi //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 118-126.
16. Saidova M., Karimova K. Boshlang'ich sinfi o'qituvchilarini masala yechishga o'rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S. – С. 59-68.
17. Saidova M. Z. BOSHLANG'ICH SINFI MATHEMATICS DARSLARIDA CREATIVE TOPSHIRIKLAR USTIDA ISHLASH (TIMSS MISOLIDA) //E Conference Zone. – 2022. – С. 21-24.
18. Saidova M. J. CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS //E Conference Zone. – 2022. – С. 14-18.
19. Saidova M. Masofaviy o'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 141-150.
20. Jonpolatovna S. M. et al. Teaching Integration Tasks Based on Information Technology in Primary School Mathematics //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 21-26.